

TASVIRIY SAN'ATNING TURLI JANRLARIDA KOMPOZITSIYA ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Umirov Karim Avaz o'g'li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Rangtasvir kafedrası katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15280659>

Annotatsiya. Mazkur maqolada tasviriy san'atning asosiy janrlari portret, manzara, natyurmort va mavzuli kompozitsiyalarda kompozitsiya ishlashning o'ziga xos xususiyatlari o'rganib chiqilib, tahlil qilindi. Har bir janrda kompozitsion usullar, undagi mazmun, ifoda, kompozitsion tuzilma va g'oya berishdagi roli hamda ahamiyati yoritiladi, shuningdek, bo'lajak rassomlar o'zlashtirishi lozim bo'lgan amaliy ishlashga o'rgatish usullari kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Mavzuli kompozitsiya, kompozitsion usullar, badiiy va ifodaviy xususiyatlar.

ОСОБЕННОСТИ КОМПОЗИЦИОННОГО ИСПОЛНЕНИЯ В РАЗЛИЧНЫХ ЖАНРАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В данной статье рассмотрены и проанализированы особенности композиционной работы в основных жанрах изобразительного искусства-портрете, пейзаже, натюрморте и тематических композициях. В каждом жанре освещаются композиционные приемы, их роль и значение в передаче содержания, выражения, композиционной структуры и идеи, а также уделяется внимание таким вопросам, как методы обучения практическому исполнению, которые должны быть освоены будущими художниками.

Ключевые слова: Тематическая композиция, композиционные приемы, художественно-выразительные особенности.

DISTINCTIVE FEATURES OF COMPOSITION WORK IN DIFFERENT GENRES OF FINE ART

Abstract. In this article, the main genres of visual art were studied and analyzed the peculiarities of working in portrait, landscape, still life and composition in thematic compositions. Each genre highlights compositional methods, its role and importance in giving content, expression, compositional structure and Idea, and also focuses on issues such as the methods of teaching future artists to practical work to master.

Keywords: *Thematic composition, compositional methods, artistic and expressive features.*

Barchamizga ma'lumki, tasviriy san'at inson tafakkuri, tuyg'usi va dunyoqarashini badiiy obrazlar orqali ifodalovchi san'at turidir.

Uning eng muhim elementlaridan biri bu kompozitsiyadir. Avvalo kompozitsiyaning haqida qisqacha to'xtalib o'tsak. Kompozitsiya bu asarning umumiy tuzilmasi, tasviriy elementlarning joylashuvi, ularning o'zaro muvozanati va ifodaviy yechimidir.

Kompozitsiya lotincha «Komposite» so'zidan olingan bo'lib, to'qish, tuzish, joylashtirish, aloxida qismlarni butun qilib birlashtirishni anglatadi. U barcha ijodiy jarayonlarga taalluqli bo'lib, deyarli hamma san'at turlarining asosini tashkil etadi. Kompozitsiya unsurlari musiqada ham, teatrdam ham fotografiyada ham, adabiyotda ham, haykaltaroshlik va albatta boshqa tasviriy san'at bilan aloqador sohalarda mavjuddir.


Kompozitsiya unsurlari bo'lgan mutanosiblik, muvozanat, yaxlitlik singari sifatlar har bir tabiat voqeliklarida mavjud. Tabiatda har bir narsa ma'lum tamoyil va qonuniyatlar ichida mavjuddir. Ularning shakl o'lchamlari, tuzilishi, o'zaro mutanosib ko'rinishlar kasb etishi unda kompozitsion mutanosiblik, muvozanatning mavjudligidan darak beradi. Kompozitsiya qanday shakl va mazmunda bo'lmasin, avvalambor u tafakkur mahsulidir. Buni badiiy ijodning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tushunishimiz ma'qul. Chunki tabiatdagi tayyor shakllar bilan badiiy ijod mahsuli bo'lgan shakllarni o'zaro farqlashimiz darkor.

Ma'lumki kompozitsiya tushunchasining barcha san'at turlariga aloqador umumiy jixatlari va shuningdek, har bir sohaga oid o'ziga xos jixatlari bor. Ularni atroflicha o'rganish, tahlil qilish talabalar ijodiy faoliyatining o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kompozitsiyani uning qonuniyatlarini o'rganish nazariya va amaliyotga bo'linishi tabiiy bo'lib, uni yaxshi o'zlashtirish uchun nafaqat yillar, balki asrlar davomida bu soxada yaratilgan nazariyalar va tajribalarning tub mohiyatini bilish kerak.

Ma'lumki kompozitsiya so'zi orqali rassomlar badiiy tasviriy san'at asarining barcha qismlarining o'zaro munosabatlarining qonuniyatini tushuniladi. Ayrim shunday bog'liqliklar albatta ko'z orqali ko'rib anglashiladi (son jixatlari), boshqalari esa (sifat jixatlari) idroklash, fikrlash orqali qabul qilinadi. Rassom kompozitsiya orqali tasvirlanuvchi shaxslarning moddiy va ma'naviy dunyosini, ijtimoiy hayotdagi o'rnini, kasbi, jamiyatdagi mavqeini aks ettiradi.

Uning shu jihatlari orqali davr xususiyati, siyosiy iqtisodiy ahvol haqida ma'lumot bera oladi.

Rassomning kasbiy mahorati, kartina ishlash uchun tanlagan materiallari esa uning yaratgan asarlariga takrorlanmas o'ziga xoslik baxsh etadi. Ijodkor asarining muvaffaqiyati uning kompozitsiyasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham o'z asarlarida kompozitsiya jihatidan yaxshi natijalarga erishgan ijodkomi, u xoh rassom bo'lsin, xoh me'mor bo'lsin, o'z sohasining kompozitori deb atashgan.



Statik kompozitsiya



Dinamik kompozitsiya

Turli janrlarda kompozitsiya o'ziga xos bo'lib, rassom asarning mazmuni, g'oyasi va ruhini ochib berishda uni har xil yondashuvlar bilan ishlaydi. Kompozitsiya nafaqat tasviriy elementlarning joylashuvi, balki butun asarning mazmuniy va hissiy yukini belgilovchi vositadir.

Shuningdek, asarning umumiy tuzilmasi, obyektlarning joylashuvi, hajmiy va rang-baranglik muvozanati, dinamikasi va ritmini belgilaydi. Turli janrlarda ishlangan kompozitsiyalarning umumiy tomonlari bu badiiy g'oyani to'liq yetkazish, elementlar muvozanati, kompozitsiya markazining mavjudligi va ifodaviy vositalarning uyg'unligidir.

Ammo har bir janrda kompozitsiyaviy qurilishning o'ziga xos farqlari bor: bu obraz, tasvir ob'ekti, harakat, vaqt, tafsilotlarga yondashuv, hissiy ta'sir shakli va boshqa ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Har bir janrda kompozitsiya tushuncha o'ziga xos mazmun kasb etsa-da, ular orasida umumiylik va farqlar mavjud. Turli janrlarda kompozitsiya ishlashning umumiy tamoyillari va janrga xos farqlari tahlil qilinadi.

Barcha janrlarda kompozitsiyaga xos umumiy xususiyatlar mavjud bo'lib, ular: Asar markazi ya'ni har bir janrda kompozitsiyaning asosiy markazi obraz, voqea, manzara mavjud bo'lib, u tomoshabinning diqqatini jalb qiladi.


Muvozanat esa elementlarning asar ichida muvozanatli joylashuvi, vazn va ritm hislari muhim. Yorug'lik va rang muvofiqligi bu kompozitsiyani kuchaytirish uchun barcha janrlarda yorug'lik-soya va ranglar uyg'unligi qo'llaniladi demakdir. Kompozitsion qonuniyatlar diagonal, uchburchak, markaziy, simmetrik yoki assimetrik kompozitsiyalar barcha janrlarda qo'llanilishi mumkin. Navbatdagi jixatlardan biri tomoshabinni boshqarish bo'lib, har bir janrda kompozitsiya nigohni asar bo'ylab yo'naltiradi, asosiy g'oyaga e'tibor qaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib har bir janrda kompozitsiya ishlashga alohida to'xtalib o'tamiz. Shuningdek tasviriy san'atning turli janrlarida kompozitsiya ishlashning ham bir biridan farqlari mavjuddir.

Portret inson obrazini ifodalovchi janr bo'lib, unda shaxsning ichki dunyosi, fe'l-atvori va ijtimoiy mavqei ochib beriladi. Kompozitsiyaning portretidagi o'ziga xos xususiyatlari esa kompozitsiya markazi, fonga alohida e'tibor ya'ni shaxs xarakterini ochuvchi muhit yoki ranglar, pozitsiya va rakurs ya'ni frontal, uch-chorak yoki profil ko'rinish, yorug'lik va kontrast kabilardan iborat bo'lib, yuz ifodasi va hajmni kuchaytiradi. Mashhur portretlarda masalan, Leonardo da Vinchining "Mona Liza" kartinasida, o'zbek rassomlaridan Ro'zi Choriyev, Rahim Ahmedov, Sobirjon Raxmetovlarning kompozitsiyalari inson ruhiyatini ochish va tomoshabinga yaqinlashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi.



Leonardo da Vinci
"Mona Liza"



Rozi Choriyev
R. Toktosh portreti



Rahim Axmedov
Chingiz Axmarov Portreti

Manzara tabiat go'zalligini tasvirlaydigan janr. Unda rassom tabiiy muhitni, vaqt, fasl va kayfiyatni ko'rsatishga intiladi. Kompozitsiya elementlaridan biri oldingi, o'rta va orqa reja bo'lib chuqurlik hissi yaratadi.

Navbatdagi elementi ufqlik chiziq va kompozitsion markaz hisoblanadi va u tomoshabinning nigohini boshqaradi, yorug'lik manbai esa kunning vaqti va fazoviy muhitni belgilaydi, diagonal yoki S-shaklidagi kompozitsiya esa harakat va hayotiylik berish uchun ishlatiladi. Manzara orqali nafaqat tabiat, balki rassomning ruhiy holati ham aks ettiriladi.

Masalan, o'zbek rassomlari O'rol Tansiqboyev, Raxim Ahmedov, Baxtiyor Maxkamovlar asarlarida bu yondashuvlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Natyurmort jonsiz buyumlarni tasvirlash janridir. Bu janrda kompozitsiya elementlarning joylashuvi va ularning o'zaro uyg'unligiga asoslanadi. Muhim kompozitsion xususiyatlari buyumlarning tuzilishi va o'zaro nisbati, rang kontrasti va yorug'lik-soya, faktura va material tafovuti har xil sirtlar (porloq, xira, shaffof)ni ifodalash va so'ngisi simbolik ma'no bo'lib, buyumlar orqali ramziy mazmun berishda qo'llaniladi. Natyurmortda rassomning didi, didaktik yondashuvi va uslubiy aniqligi kompozitsiyada yaqqol aks etadi. Bularga natyurmortchi rassom Abdumajid Sagatovning asarlarini misol qilishimiz mumkin.



Abdumajid Sagatov
Gullar aro qandil olmalar



Sattorov Muxammadjon Buyuk
Mikelandjeloga bag'ishlab

Mavzuli kompozitsiya bu tarixiy, ijtimoiy, diniy yoki ma'naviy g'oya asosida yaratilgan asarlar bo'lib, voqea va obrazlar orqali mazmuni yetkaziladi. Bu janrda rassomlar ko'pincha tarixiy yoki milliy obrazlar, epik sahnalar, xalq og'zaki ijodi motivlariga murojaat qilishadi. Masalan, Chingiz Ahmarovning "Alpomish", Sa'dulla Abdullayevning "Samarqand osmonida yulduzlar" va Zayniddin Faxrutdinovning tarixiy mavzusidagi asarlarida buni ko'rish mumkin.

Dekorativ va eksperimental janrlarda ham ishlangan kompozitsiyalar tomoshabin e'tiborini torta oladi. Zamonaviy san'atda ko'plab rassomlar dekorativ, abstrakt yoki eksperimental yo'nalishlarda ishlashadi. Bu janrlarda kompozitsiya rangsimon ritmlar va geometrik shakllar asosida quriladi. Obrazlar real bo'lmashligi mumkin, lekin ichki ifoda kuchli bo'ladi shuningdek, kompozitsiya hissiyot, kayfiyat va musiqiylik vositasiga aylantiriladi.



Javlon Umarbekov
Qovun bozori



Alisher Mirzayev
Buxoro rastachilari

Turli janrlarda kompozitsiya ishlashning o'ziga xos xususiyatlari badiiy g'oyani to'liq yetkazish, elementlar muvozanati, kompozitsiya markazining mavjudligi va ifodaviy vositalarning uyg'unligidan iboratdir. Kompozitsiya rassomning dunyoqarashi, fikrlash doirasi va his-tuyg'ularini ifoda etuvchi asosiy badiiy vosita bo'lib, har bir janrda o'ziga xos mazmun va estetik yuklama bilan xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, tasviriy san'atning har bir janrida ishlangan kompozitsiya o'ziga xos ifodaviy imkoniyatlarga ega. Masalan, portretda shaxsiyat ochiladi, manzarada muhit va kayfiyat, natyurmortda tafsilotlar va ramziy ma'no, mavzuli kompozitsiyada esa voqea va dramatism yoritiladi. Har bir janrda kompozitsiyani puxta ishlash orqali rassom o'z g'oyasini aniq, kuchli va ta'sirchan ifoda eta olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

REFERENCES

1. Ibrohimov A. "Kompozitsiya va uning turlari", 2019
2. Qodirova M. "Tasviriy san'at asoslari", Toshkent, 2020
3. Ibrohimov A. "San'at va kompozitsiya", 2018

4. Zarifova, D. (2023). TEACHING TECHNOLOGY OF THE TOPIC OF PORTRAIT OF THE HUMAN HEAD IN PAINTING. *Modern Science and Research*, 2(10), 391-393.
5. Zarifova, D. (2025). IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNING BADIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ART-TERAPIYANING O‘RNI VA AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 4(3), 271-274.
6. Kenjayev, S. O. (2025). O‘ZBEK TASVIRIY SAN’ATIDA MAVZULI KOMPOZITSIYALARNING YORITILISHI. *SCHOLAR*, 3(4), 24-29. <https://scholar-journal.org/index.php/s/article/view/246>
7. Bozorov, F. (2025). AKADEMIK MANERA VA ZAMONAVIY INDIVIDUAL YONDASHUV: RANGTASVIR VA QALAMTASVIRDA USLUBLAR EVOLYUTSIYASI. *Modern Science and Research*, 4(3), 159–165. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/71860>